

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

| | |
|---|-----|
| ВМЕСТЕ СОЗДАВАЯ БУДУЩЕЕ СОЦИАЛЬНОЙ НАУКИ..... | 6 |
| 1. Сейтов Азамат ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ КАК ЛИДЕРОВ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ..... | 8 |
| 2. Xolbekov Abdug‘ani ШАХС ИЖТИМОЙИ ФАОЛИЯТИ ОМИЛЛАРИ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ (7 “Г” ФОРМУЛАСИ ТАЛҚИНИДА)..... | 16 |
| 3. Farfiyev Baxramdjan, Abdupattaev Mumin Mirzo DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG‘UNLIGI, BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI..... | 23 |
| 4. Abduraxmonova Manzura KAM TA‘MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI..... | 32 |
| 5. G‘afforova Mavlyuda SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O‘RNI..... | 40 |
| 6. Seitova Zuhra AL-FOROBIIY: FALSAFA, AXLOQ VA SIYOSIY FIKRLAR..... | 48 |
| 7. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SIFATI TALABALAR NIZOHIDA: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI..... | 53 |
| 8. Kamalova Khatira QARAQALPAQ XALQÍ HAYAL-QÍZLARÍNÍN JÁMIETLIK-SIYASIY BELSENDILIGI..... | 60 |
| 9. Якубов Ильдар ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КНР..... | 72 |
| 10. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING IJTIMOIY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI..... | 79 |
| 11. Hojiyev Zavqiddin IJTIMOIY XAVFSIZLIK: ILMIY-NAZARIY VA SOTSIOLOGIK TAHLIL..... | 88 |
| 12. Axmedova Feruza TIBBIYOT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA..... | 96 |
| 13. Akramov Xusan ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY ME‘YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI..... | 106 |
| 14. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XODIMLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL TA‘LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY JIHA TLARI..... | 112 |
| 15. Raximova Shaxnoza AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI..... | 123 |
| 16. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARINI JORIY ETISH..... | 131 |


| | |
|--|-----|
| 17. Kamilov Farxod | |
| INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR..... | 142 |
| 18. Razzakova Nargis | |
| MUSTAHKAM OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI..... | 150 |
| 19. Axmedova Ra'no | |
| O'ZBEKISTON YOSHLARI FAROVONLIGINING TAHLILI: JAHON QADRIYATLARI TADQIQOTI (WORLD VALUES SURVEY) MA'LUMOTLARI ASOSIDA..... | 157 |
| 20. Мирзаева Шахноза | |
| ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ: РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ..... | 165 |
| 21. Вахидова София | |
| ЭВОЛЮЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТ БЭБИ-БУМЕРОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ X..... | 174 |
| 22. Bozorova O'limaxon | |
| IJTIMOYIY KAPITALNING MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIKLARI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI..... | 183 |
| 23. Ruyiddinova Aisha | |
| INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA'SIRI..... | 195 |
| 24. Tursunboyev Jahongir | |
| SOTSIOLOGIY ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI..... | 201 |
| 25. Raximbayeva Oftobxon | |
| ZAMONAVIY RAHBARLARDA KASBIY VA IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH..... | 208 |
| 26. Sharopov Sadriddin | |
| INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA..... | 215 |
| 27. Burxanov Xusniddin | |
| RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR..... | 224 |
| 28. Mamaziyaeva Nargiza | |
| O'ZBEKISTON VA TURKIYADA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OQILONA OVQATLANISH AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI..... | 232 |
| 29. Murodova Fotimabonu, Axmedova Feruza | |
| O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR..... | 238 |

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Burxanov Xusniddin,
Sotsiologiya fanlari doktori (DSc),
O‘zbekiston Milliy universiteti
“Sotsiologiya” kafedrası
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: doktorantt@mail.ru

RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18355024>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli jamiyatning shakllanishi va rivojlanishida algoritmik yondashuvlarning o‘rni o‘rganilgan. Shuningdek, bugungi kunda algoritmli yondashuv bilan axborot xavfsizligini ta‘minlash va milliy saytlarni rivojlantirish hamda aholiga sifatli ish topish imkonini beruvchi va jamiyatning ijtimoiy rivojini yuqori darajada oshirishi mumkin bo‘lgan omillar yoritilgan. Bundan tashqari axborot kommunikatsiya vositalari jadal ommalashuvi natijasida ular jahon media maydoni sahnasidagi katta mavqe ochib berilgan. Shu bilan birga ommaviy muloqot vositalari ijtimoiy tarmoqlarga aylanib borayotganligi va hozirgi davrda axborot kommunikatsiyalari bugungi tadrijiy rivojlanishning muhim voqeligiga aylanib, hatto, taraqqiy etgan davlatlar fuqarolari ham bir xil talab-ehtiyojlardan kelib chiqib ommaviy muloqot subyekti darajasiga ko‘tarilganligi yoritilgan. Shuningdek, internet tarmog‘ining paydo bo‘lishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy hayotning juda ko‘p jihatlari, maishiy xizmatlar, biznes va menejment, yuridik va konsullik xizmatlari, hatto, davlat boshqaruvigacha virtual olamga o‘tayotganligi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: Internet, axborot xavfsizligi, raqamli jamiyat, datifikatsiya, algoritm, sun‘iy intellekt, milliy saytlar, texnologiya, raqamli media, ijtimoiy ta‘sir, ijtimoiy institut.

Бурханов Хусниддин,
доктор социологических наук (DSc),
независимый научный сотрудник
кафедры Социологии
Национального университета Узбекистана
e-mail: doktorantt@mail.ru

АЛГОРИТМИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В СТАНОВЛЕНИИ И РАЗВИТИИ ЦИФРОВОГО ОБЩЕСТВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль алгоритмических подходов в становлении и развитии цифрового общества. Также выделяются факторы, которые сегодня, используя

алгоритмический подход, обеспечивают информационную безопасность и развивают национальные веб-сайты, позволяют населению найти качественную работу и значительно повысить социальное развитие общества. Кроме того, в результате стремительного распространения информационно-коммуникационных технологий они заняли значимые позиции на мировой медиасцене. В то же время подчеркивается, что средства массовой информации превращаются в социальные сети, и что в современную эпоху информационные коммуникации стали важной реальностью современного прогрессивного развития, и даже граждане развитых стран поднялись до уровня субъектов массовой коммуникации, основанных на тех же запросах и потребностях. Также доказано, что с появлением Интернета многие аспекты социально-экономической жизни, включая бытовые услуги, бизнес и управление, юридические и консульские услуги и даже государственное управление, перемещаются в виртуальный мир.

Ключевые слова: Интернет, информационная безопасность, цифровое общество, датафикация, алгоритм, искусственный интеллект, национальные сайты, технологии, цифровые медиа, социальное воздействие, социальные институты.

Burkhanov Khusniddin,
Doctor of Sociology (DSc),
Independent Researcher
of the Department of Sociology,
National University of Uzbekistan
e-mail: doktorantt@mail.ru

ALGORITHMIC APPROACHES IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF DIGITAL SOCIETY

ABSTRACT

This article examines the role of algorithmic approaches in the formation and development of digital society. It also highlights the factors that today, using an algorithmic approach, ensure information security and develop national websites, and allow the population to find quality work and significantly increase the social development of society. In addition, as a result of the rapid spread of information and communication technologies, they have gained a significant position on the world media scene. At the same time, it is highlighted that mass communication media are turning into social networks and that in the present era, information communications have become an important reality of today's progressive development, and even citizens of developed countries have risen to the level of subjects of mass communication based on the same demands and needs. It is also proven that with the advent of the Internet, many aspects of socio-economic life, including household services, business and management, legal and consular services, and even state administration, are moving to the virtual world.

Keywords: Internet, information security, digital society, datafication, algorithm, artificial intelligence, national sites, technology, digital media, social impact, social institution.

KIRISH

Raqamli jamiyat sharoitida axborot kommunikatsiya vositalari jadal ommalashuvi natijasida ular jahon media maydoni sahnasida katta mavqega ega bo'lib bormoqda. Bunday sharoitda ommaviy muloqot vositalaridan biri – ijtimoiy tarmoqlar hisoblanadi. Hozirgi davrda axborot kommunikatsiyalari bugungi tadrijiy rivojlanishning muhim voqeligiga aylanib, hatto, taraqqiy etgan davlatlar fuqarolari ham bir xil talab-ehtiyojlardan kelib chiqib ommaviy muloqot subyekti darajasiga ko'tarildi. Internet tarmog'ining paydo bo'lishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy hayotning juda ko'p jihatlari, jumladan, kundalik maishiy xizmatlar, biznes va menejment, yuridik va konsullik xizmatlari, hatto, davlat boshqaruvigacha virtual olamga o'tmoqda.

Binobarin, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning an'anaviy muloqot shaklini tubdan o'zgartirib, ayniqsa, COVID pandemiyasi davridaboshqa davlatdagi insonlarni nafaqat eshitish, balki ko'rish imkoniyatini yuzaga kelishi natijasida on-layn suhbatlar, virtual uchrashuvlar ommalashdi.

Shu nuqtai nazardan sotsiolog olim E.To'fflerning axborot asrida barcha ishlab chiqarishlar, jumladan, axborot vositalari ham ommalashuvdan noommalashuv tomon, ya'ni individuallashuv tomon yuz tutadi, degan bashorati o'z isbotini topmoqda [1, – B.576].

Ijtimoiy tarmoqlar yordamida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari ham o'z faoliyatlarini keng yoritish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Bunda vazirlik va tashkilotlarning tarmoqlardagi sahifalarini tashkil etish bo'yicha O'zbekistonda qonunchilik bazasi muttasil takomillashtirilmoqda.

Eng muhimi veb-saytlar vazirlik va idoralarning faoliyati to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan rasmiy sayt sifatida identifikatsiya qilinadigan, eng muhimi, undan hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan resursga aylandi. Demak, rasmiy tashkilotlarning veb-sahifasi ma'lum ma'noda Internetdagi nashr funksiyasini ham bajarmoqda. Ana shu saytlar plaginlarining ommabop sotsial tarmoqlar tarkibidagi bugungi shakllanish jarayonini axborot sohasidagi eng zamonaviy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ular xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizni birlashtirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Raqamlashtirishning jamiyatga chuqur kirib borishi natijasida global media maydonida raqobatbardosh faoliyat yuritishga qodir ijtimoiy tarmoqlar yaratish muammo bo'lsa, yurtimiz hududida faoliyat yuritayotgan OAVning ushbu tarmoqlardan unumli foydalanishi soha muammosiga aylandi. Bunday vaziyatda jahon axborot makoniga to'g'ridan-to'g'ri chiqish, auditoriya, ya'ni abonentlar soni va geografiasini bir necha bor kengaytirish borasida ijtimoiy tarmoqlar yetakchi o'ringa chiqib oldi hisobi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarning mamlakat imijini shakllantirish, ya'ni mustaqil davlatimizda erishilgan olamshumul yutuqlarni dunyoga keng targ'ib qilishdagi o'rni tobora ortib bormoqda.

METODOLOGIYA

Ayrim xorijlik tadqiqotchilar raqamlashtirish va zamonaviy axborot bilan ta'minlash jarayonidagi innovatsiyalarning eksponensial tarqalish bosqichlarini muhim holat sifatida talqin qilishdi. Mutaxassislar fikricha, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi va texnologiyalari ular o'rtasida aylanayotgan axborot oqimi bilan bir-biriga uzviy bog'langan, yuqori texnologik qurilmalardan tashkil topgan yagona raqamli makonga integratsiyalashuvi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy jarayonlar chuqurlashuvi esa vositachilikka aylanib, algoritmlar, avtomatlashtirilgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va turli xil texnik infratuzilmalar yordamida quriladi [2, – B.248], uning o'lchamlari (makon, vaqt va dunyoviy bilimni to'plash va tarqatish) o'zgartirib boriladi. Zero, sotsiologlar uchun bunday tarkibiy o'zgarishlarning ijtimoiy jihatlari va inson faoliyatidagi natijalar oqibatlarini muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan raqamli jamiyatda Internet tarmoqlari, uning imkoniyatlari individning ijtimoiy borlig'i, tafakkur chegaralarini kengaytirib, vositalashtirilgan ijtimoiy o'zaro muloqot qilishning asosiy usullaridan biriga aylanmoqda. Biroq, bu imkoniyatlar o'z navbatida, yangi ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda: tengsizlikning yangi shakllari paydo bo'lishi, shahsiy hayot va davlat chegaralarini tan olmaydi va hokazo. Bunday holatda mediatizatsiya ham yangilik sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Binobarin, Axborot o'zaro ta'sir subyektlari nazoratidan chiqib ketishi oqibatida ijtimoiy hayotning vaqtinchaligi texnologik infratuzilma ta'sirida tobora chuqur singib bormoqda. Inson faoliyatiga oid maxsus ma'lumotlar, texnologiyalar ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi dunyoviy bilimni to'plash, uni qayta ishlash va tarqatishning asosiy manbaiga aylandi. Algoritmlar orqali raqamli jamiyatdagi dunyoviy bilim keyinchalik tijorat yoki tashkilotchilik, boshqaruv maqsadida foydalanish uchun to'planadi. Raqamli jamiyatda axborot majmuasining o'ziga xos xususiyati odamlar undan ixtiyoriy ravishda samarali foydalanish orqali takomillashtirishga erishiladi.

ASOSIY QISM

Sun'iy intellekt texnologiyalari, bulutli hisoblash va boshqalarning rivojlanishi jamiyatning keyingi raqamli transformatsiyasiga yordam beradi. Aslida sun'iy intellekt – inson ko'nikmalarini qayta ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan dasturlar to'plami hisoblanadi. Sun'iy intellekt mavjud

muammolarga yechim topish, rejalashtirish, bilim olish, o'z ustida ishlash kabi vazifalarni o'z vaqtida va to'liq bajarishga yordam beradigan qobiliyatdir. Keng ma'noda sun'iy intellekt murakkab muammolarni o'rganish va hal qilishga qodir bo'lgan tahliliy tizimlarni ishlab chiqish fanining bir tarmog'i hisoblanadi. Tor ma'noda esa sun'iy intellekt kompyuterning inson tafakkuriga asoslangan o'rgatish texnologiyasidir. Umuman olganda, sun'iy intellekt olingan ma'lumotlar asosida muayyan xulosalar chiqarishga qodir bo'lgan modellar va usullar to'plamidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizningcha, raqamli jamiyat – infratuzilmasi raqamli texnologiyalar, ya'ni ilmiy asoslangan ma'lumotlar va sun'iy intellekt texnologiyalari, algoritmlar va algoritmik tizimlar, bulutli hisoblash va boshqalar orqali ishlaydigan tarmoq tuzilmalari va platformalarini o'zaro ta'siridagi shakli. Zero, raqamlashtirish texnologiyalari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib borishi va integratsiyalashuvi raqamli jamiyatning muhim xususiyatidir. Shu bois, raqamlashtirishni 4 ta jarayonlarini quyidagi kombinatsiya asosida ko'rib chiqish mumkin: 1) tarmoqlashtirish; 2) ma'lumotlarni uzatish; 3) platformalashtirish; 4) algoritmlashtirish. Boshqacha aytganda, ularning har biri raqamli jamiyat texnologik infratuzilmasi elementlari – tarmoqlar, ilmiy asoslangan ma'lumotlarni yig'ish texnologiyalari, platformalar va algoritmlarga asoslangan. Ushbu texnologik infratuzilma, o'z navbatida, raqamli jamiyatning mexanizmlari ulanishini uning murakkabligi va harakatchanligini amalda ta'minlaydi [3, – B.192].

Xorijlik mutaxassis M.Kastels tarmoqlanish fenomeniga bag'ishlangan tadqiqotida zamonaviy dunyodagi ijtimoiy hayotning moddiy asoslari o'zgarishiga guvoh bo'lib, axborot oqimlari singib ketgan va real vaqti singib ketgan makon atrofida tashkil etilgan [4, – B.594]. Raqamlashgan axborot tarmoqlari hududiy va institutsional chegaralarni yengib o'tib, jamiyat infratuzilmasini yaratadi. Shu nuqtai nazardan raqamlashgan jamiyat o'z mohiyatiga ko'ra global jamiyat hisoblanadi. Ammo jamiyat tizimlari global xususiyatiga qaramay, hamma ham unga kiritilmagan, chunki deyarli insoniyatning 40% hali ham Internet tarmoqlariga kirish, jadallashgan sharoitda axborot qabul qilish imkoniga ega emas [5, – B.100]. Raqamli jamiyatda ijtimoiy tenglikning yangi maydoni sifatidagi dastlabki tushunchalar o'tmishda qolib, tarmoq g'oyasi tabiiy, deb qabul qilinmoqda. Chunki "hamma narsa Jahonda atrof-muhit bilan o'zaro bog'liq bo'lganidek, ijtimoiy tarmoq ham ko'rinmas tuzilishdan iborat mukammal jarayondir" [6, – B.290].

Biroq, raqamli jamiyatda zamonaviy platformalarni boshqarish markazlashtirilgan bo'lib, ba'zi yirik markazlarga bo'ysunadi, bu xolat nazorat va senzurani kuchaytiradi, shuningdek, Internet tarmog'ida axborot oqimini muayyan darajada tartibga keltiradi. Bunga sabab, «Internet tarmog'i infratuzilmasidan muntazam foydalanuvchilarga global hajmdagi ma'lumotlar majmuasi abonentlar maqsadi uchun imkon berib, bu ularning shaxsiy hayotiga jiddiy ta'sir o'tkazadi, ba'zan esa tahdid ham soladi» [7, – B.50].

Shu bois raqamli jamiyatda kommunikativ imkoniyatlar xilma-xil va ochiq bo'lib, u o'z navbatida tarmoq tugunlari bo'lgan turli manbalardan olinadigan axborotni tizimlashtirish va birlashtirishga imkon beradi. «Axborot mazmuni va maqsadlarini umumlashtirish natijasida inson ongida sodir bo'ladigan o'zgarishlar, o'z navbatida, tarmoqlar orqali uzatiladigan axborot oqimlariga bog'liq bo'lganligi sababli axborot egalariga tegishlidir», [8, – B.594] deb xulosa qilgan M.Kastels. Kredit kartalari ma'lumotlari, moliyaviy operatsiyalar, telefon qo'ng'iroqlari, Internet tarmog'iga ulangan har qanday kompyuter faoliyati, turli darajadagi qidiruvlar, elektron pochta, ijtimoiy tarmoq saytlaridagi o'zaro aloqalar yagona aloqa muhitiga birlashtirilganda – raqamli kuzatuv uning ajralmas elementiga aylanadi. To'liq raqamli kuzatuvni amalga oshirish uchun axborotning bunday misli ko'rilmagan darajadagi tarqalishi uchun vujudga kelgan shart-sharoitlar, davlatda inson intellekti natijalarining ijtimoiy borliqda namoyon bo'lishidir.

Tarmoqlashuvning tizimli o'sishi natijasida sodir bo'ladigan ijtimoiy o'zgarishlar muayyan darajada Internet orqali tarqalayotgan axborot texnologiyalari bilan bog'liq. Global tarmoqqa ulangan sensorlar axborotni to'plash, uning joylashuvini aniqlash, unga javob berish va qurilmalarning o'zaro ta'sir qilish imkoniyatlari ishlatiladi. Shu bois sensorlar va transmitterlar aloqa tarmog'idagi aktyorlarga aylanib, bu aslida obyektlar va sensorlar, ya'ni maqsad hamda vazifalarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan yangi tizim ekanligini anglatadi [9, – B.292]. Darhaqiqat, raqamli jamiyatda axborot tizimining gibrid tarmoqlari ham shakllanib, unda odamlar bir-biriga ma'lumotlar uzatadi,

uni qabul qiladi. Biroq, har bir inson turli xil obyektlar bilan aloqada ya'ni obyektlar, o'z navbatida, bir-biriga uzviy bog'langan bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan M.Kastells global nazorat byurokrtiyasining paydo bo'lishini qayd etib, Internet tarmog'idagi faoliyat o'z faoliyati haqidagi ma'lumotlarni ixtiyoriy ravishda abonentlarga uzatish, ya'ni korporatsiyalar uchun zarur ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Bunday mazmundagi axborot aslida asosiy tovar missiyasini bajarib, Internet tarmog'i bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar mazkur biznes modelning asosi hisoblanadi [10, – B.292]. Muloqot erkinligi va aniq ma'lumotlarning kompaniyalar o'rtasidagi konsentratsiyasi turlicha ziddiyatda ifodalangan paradoks mavjud bo'ladi. Raqamli jamiyatda tijoratlashtirishning murakkabligi subyektlar o'rtasidagi barcha ma'lumotlar ustidan nazoratni ta'minlaydi [11, – B.704]. Natijada aloqa tarmoqlarining ishlashi raqamli jamiyatning axborot oqimi o'lchovini yaratadi. Ushbu tarmoq o'lchovi uning o'zaro bog'liqligini aks ettirib, axborotni qabul qilish, uni uzatish jarayonida nazoratning kuchayishiga, xususiy va jamoat tashkilotlardagi doimiy chegaralarni buzishga, ijtimoiy tengsizlikning o'sishi va boshqa salbiy holatlarga olib keladi.

Raqamli jamiyatda qo'llanuvchi, “datifikatsiya” (“datafication” ingliz tilida) atamasi 2013-yilda “hodisalarni tahlil qilish maqsadida tahliliy jadvallar tuzish uchun miqdoriy formatda taqdim etish jarayoni” sifatida ilmiy muomalaga kiritilgan. Boshqacha aytganda, “Datifikatsiya” ma'lumotni raqamli shaklda qayd etish, degan ma'noni anglatadi [12, – B.304]. Raqamlashtirish texnologiyasini ishlab chiqish, o'z navbatida ma'lumotlarni aniqlashning katalizatori bo'ldi. Datifikatsiya – ijtimoiy jarayon, chunki uning yordami bilan inson xatti-harakatlarini “vizuallashtirish”, deyarli har qanday faoliyat turini ma'lumotlarga aylantirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan datifikatsiya haqida “ijtimoiylik va ijtimoiy xulq-atvorni tushunish uchun yangi paradigma” [13, – B.208] hisoblanadi. Shaxsning kunlik tajribasi bir qismini raqamli muhitga o'tkazdi: do'stlik va ijtimoiylashuv ijtimoiy tarmoq saytlari algoritmlari tomonidan yaratilib, qo'llab-quvvatlanadi, “kuzatuvchilar” va “retvitlar”, ya'ni foydalanuvchilar oqishlari orqali obro' va mashhurlikka erishiladi, o'zaro professional aloqalar tizimi orqali mustahkamlanadi. Platformalarda to'plangan ma'lumotlar uchinchi shaxslar (foydalanuvchilar, xususiy sektor, davlat idoralari va boshqalar) uchun ochiq xarakter kasb etadi. Mediatlashtirilgan ijtimoiylik holati, ya'ni mavjud ma'lumotlar qiymatiga asoslanib, yangi subyektlarning rivojlanishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Xorijlik mutaxassislar N.Kouldry va V.Mejiaslarning qayd etishicha, «Datifikatsiya 2 ta jarayonni birlashtiradigan bo'g'in hisoblanadi. Datifikatsiya natijasida bir tomondan, inson hayoti faoliyatini miqdoriy baholash orqali ma'lumotlarga aylantirsa, ikkinchidan, ushbu ma'lumotlarning har xil turdagi qiymatlarga aylanishini ta'minlaydigan murakkab jarayondir» [14, – B.1]. Demak, datifikatsiyaning joriy qilinishi ijtimoiy hayotni umumiy miqdoriy baholashga olib keldi. Raqamlashtirish jarayoni yoki bunday xarakterdagi ko'rsatkichlar ijtimoiy qiymatni aniqlashning universal vositasiga aylanmoqda. Chunki ular shaxs faoliyati baholanishi jarayonida islohotlarning barcha aktyorlari ishtirokini baholashga imkon beradi.

Sotsiolog olim D.Beer fikricha, “Ko'rsatkichlar zamonaviy hayotni boshqarishning muhim va kuchli qismidir” [15, – B.223]. Shu nuqtai nazardan, raqamli ko'rsatkichlar nafaqat miqdoriy shakllanish bilan bog'liq, balki ta'sir imkoniyati va boshqaruvi, ijtimoiy qadriyat va hokimiyatning o'zaro munosabatlarini aks ettiruvchi, ya'ni o'zini namoyon qilish usullariga ta'sir qiluvchi kompleks jarayondir. Bunda muayyan qarorlar natijasi hisoblangan axborotni iste'molchilarga yetkazish, qonuniy va e'tiborga loyiq, deb hisoblangan xulosalarni aniqlash uchun qiyoslash o'lchovlaridan samarali foydalanish orqali namoyon bo'ladi. Biroq, nazorat va boshqaruv uchun zarur bo'lgan raqamli ma'lumotlardan nafaqat davlat idoralari, balki xususiy firma, tashkilot ham foydalanishadi. Raqamli jamiyatda individ ixtiyoriy ravishda faoliyatini miqdoriy baholashni tanlab, o'zi haqidagi ma'lumotlarni boshqalarga taqdim etishi natijasida beixtiyor “o'zini boshqarish va kuzatish loyihasi”ga aylantiradi [16, – B.9].

Bu borada S.Mauning “metrik jamiyat” atamasi barcha ijtimoiy jarayon va hodisalarning miqdoriy bahosini, shuningdek, shaxsning o'ziga xosligini bildiradi [17, – B.200]. Uning fikricha, miqdorni aniqlash reytinglar va reyting tizimlarini yaratish, tarqatish, yangi ko'rsatkichlar ishlab chiqish, uni joriy etish va baholash tizimlaridagi mexanizmlardan foydalanish, ya'ni o'z-o'zini

nazorat qilish amaliyotini o'z ichiga oladi. Bu optimallashtirish, ratsionalizatsiya va mahsuldorlikni oshirishning neoliberal mantig'i hisoblanib, natijada eng yaxshi ko'rsatkichlar uchun kurashning avj olishiga olib keladi [18, – B.401]. Shu nuqtai nazaridan miqdoriy o'z-o'zini tavsiflash nafaqat ilgari mavjud bo'lgan ijtimoiy voqelikning ko'rinishi, balki yangi mexanizmlar (tavsiyalar, sharhlar, reytinglar) yordamida mavjud ijtimoiy farqlarni yaratish usuliga aylanadi.

Darhaqiqat, raqamli jamiyatda dasturiy ta'minotga asoslangan algoritmlarda ishlaydigan sanoq sonli qurilmalar mazmuni, ularning amaliyotdagi zarurligiga oid turli fikrlar mavjud.

Shu nuqtai nazardan algoritmlarni taqsimlash shartining muhim jihati ilmiy asoslangan ma'lumotlarni datifikatsiya qilishdan iborat. Bunda algoritmlar nafaqat hajmi jihatidan ulkan, balki tuzilishi jihatidan ham juda murakkab bo'lib, hatto, inson mantig'iga tushunarsiz ma'lumotlar bilan ishlaydi. Xususan, E.Esposito algoritmlarga yangi ijtimoiy agentlar sifatida yondashishni taklif qiladi. Mashhur olimning fikricha, muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun vositalar (mashinalar, raqamli qurilmalar) va aloqa sheriklari (botlar, ovoqli xabarchilar va boshqalar) sifatida ishlaydi [19, – B.249]. Bunda muammo uni qaror qabul qilishda qanchalik mustaqil bo'lishi juda muhim. Chunki algoritmlar odamlar tomonidan dasturlashtirilgan. Demak, algoritmlarning ijtimoiy ahamiyati axborotni yaratish va uzatish imkoniyati bilan belgilanadi. E.Esposito biz sun'iy aloqa haqida gapiramiz, deb xulosa qiladi, ya'ni algoritm axborotning mazmun-ma'nosini tushunmaydi va xabarlarini talqin qilishga qodir emas.

Binobarin, algoritmlar faqat axborotni o'z ichiga olgan kod asosida tasvirlab bermaydi, balki ular bashorat qilib yangi ma'lumotlar konfiguratsiyasiga ta'sir qiladi. Boshqacha aytganda, inson tafakkurida atrof-muhitni idrok etishning yangi usullari paydo bo'ladi, ya'ni stereotiplar qayta ishlab chiqilishi natijasida amaliyot va dunyoqarashlar qayta tiklanib, cheksiz tanlovlarga asoslangan yangi imkoniyatlar eshigi ochiladi [20, – B.137]. Masalan, axborotni qidiruv tizimlari so'rovi orqali ko'proq foydalanuvchi uchun eng mos manba va unga foydali bo'lishiga xizmat qilishi mumkinligini prognoz qilib, eng ko'p so'rab murojaat qiladigan qidiruv so'rov reytingi natijasiga ham ta'sir qiladi. Shu bois qidiruv so'rov natijalari nafaqat "ma'lumot" sifatida ko'rib chiqiladi, balki "ijtimoiy ma'lumotlar" [21, – B.230] bazasidagi mavjud axborot rolini ham bajaradi.

Aksariyat algoritmlar "nazoratdan chiqib ketadi", chunki ularning ish natijalarini oldindan prognozlash juda qiyin [22, – B.14]. Jumladan, zarur ma'lumot qidirish so'rovini kiritgan foydalanuvchi (abonent) uchun uning natijalari – joylashuvi va qidiruv tarixiga qarab farq qilishi mumkin. Bu borada R.Kitchinning fikriga ko'ra, "algoritmlarni xolis axborot manbai yoki qaror qabul qilishning neytral va avtonom subyekti sifatida ko'rib chiqish mumkin emas. Bunda quyidagi 3 ta omilni inobatga olish zarur. Dastlab qo'shimcha qiymat yaratish va tadbirkorlik maqsadida algoritmlar ishlab chiqilib, amalga oshiriladi; ikkinchidan, shaxslarning xulq-atvori va ularning afzalliklarini shakllantirishni tartibga solishga harakat qilinadi; uchinchidan, mavjud mezonlar bo'yicha shaxslarni aniqlash, uni tartiblash va tasniflash jarayoniga xizmat qiladi [23, – B.29].

Raqamli jamiyatda algoritmik boshqaruv mexanizmlari jahonning yangi tasvirini belgila, ular kuch ishlatish, majburlash va ijtimoiy nazoratning yangi mexanizmlarini yaratish uchun xizmat qiladi. Muammoga bunday yondashuv tadqiqotchilar K.Katzenbax va L.Ulbrichtlar tomonidan ijtimoiy tartib shakli sifatida belgilangan algoritmik boshqaruvning tarqalishini izohlashga qaratilgan.

Natijada subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish mexanizmlari maxsus qoidalar va murakkab kompyuter tartib-qoidalariga asoslanadi [24, – B.18]. Xorijlik mutaxassislar algoritmik boshqaruvni algoritmik tizimning shaffofligi, uning avtonomligi darajasi masalasini muammolashtirish kontekstida ko'rib chiqishni taklif qilib, uning boshqa boshqaruv usullariga nisbatan algoritmik boshqaruvni ijtimoiy ochiqlik uchun katta imkoniyatlarga ega ekanligini aniqlashgan. Biroq, amalda intellektual cheklovlar, ya'ni texnika mashinalarni o'rganish tizimlarining murakkabligi va tizimli to'siqlar (tijorat sirlari, xavfsizlik, maxfiylik muammolari tufayli va unga xizmat qiluvchi algoritmlarning mavjud emasligi) bois natija kutilgandek bo'lmasligi ham mumkin.

Shu nuqtai nazardan algoritmik nazorat tartib-qoidalari ijtimoiy shaffoflik va mavjud axborot ko'lamidan foydalanishni cheklaydi. Biroq, bunday murakkab jarayonda siyosiy mustaqillik darajasi raqamli jamiyat taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Chunki, boshqaruv rejimlari qonuniyligi aynan

qaror qabul qiluvchining mas'uliyati va javobgarligiga, uning jamiyatdagi professional (sudya, shifokor, jurnalist, iqtisodchi, tadqiqotchi, va boshqalar) roliga va uning axloqiy me'yorlarga xizmat qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'lishiga bog'liq. Demak, algoritmik tizimlar mustaqil qaror qabul qiluvchilarga nisbatan yuqori darajadagi mustaqillikni shakllantirishi mumkin. Muammoga bunday yondashuv "ishtirok etish shkalasi" deb atalgan vaziyatni anglatadi. Boshqacha aytganda, qarorlar individ tomonidan monitoring qilinmaydigan to'liq avtomatlashtirilgan tizimlardan tortib, u taklif qilgan qarorlarni bajaradigan yoki tasdiqlaydigan tavsiya tizimlarigacha bo'lgan murakkab jarayonni o'z ichiga oladi.

Buning natijasida algoritmik tizimlar ijtimoiy jarayonlarning shaffofligini oshirib, ular shaxsni (avtomatik ravishda) aniqlash, uni kuzatish, profillash yoki baholash usullarini ko'pincha real vaqtda o'zgartiradi, ya'ni ularni ko'rinmas qiladi. Shu bois, avtomatlashtirilgan algoritmik tizimlar shaxs xatti-harakatlarini o'qiydi va tahrirlaydi, hatto, insonning his-tuyg'ulari, uning sog'lig'i, imkoniyatlari holatini hisoblab ekranga chiqarib, foydalanuvchining profilini aniqlash va unga ko'rsatish uchun eng mos ma'lumotlar yoki muayyan shaxsga taklif qilinishi mumkin bo'lgan maqbul yechimlar qatorini tanlash imkonini beradi. Bunday murakkab jarayonlar "boshqalar" va "individuellik" tushunchalarini shubha ostiga qo'ib, tizim asosan o'xshashlik prinsipi asosida ishlaydi, individual va shunga o'xshash "boshqalar" o'rtasida umumiy bo'lgan profillarni yaratadi [25, – B.114].

Bundan tashqari E.Parizer tomonidan taklif qilingan "filtr pufakchalari" konsepsiyasi nuqtai nazaridan algoritmlar ishlashini tahlil qilishda muayyan darajada qiziqish uyg'otadi. "Filtr pufakchasi" konsepsiyasi mualliflashtirilgan qidiruv protsedurasi sifatida belgilanadi. Bunda veb-sayt algoritmlari ma'lum bir foydalanuvchi uchun raqamli yondashuv asosida unga qanday ma'lumotlar qiziqarli bo'lishini aniqlaydi. Mazkur jarayonda bahsli jihat shundaki, algoritmik shaxs faoliyati asosan ko'rinmas va nazoratdan tashqarida sodir bo'lib, foydalanuvchi faqat "yaqin, biroq noma'lum" holatdagi muhitda ish yuritadi. E.Parizerning fikricha, Internet tarmog'i va undagi axborot imiji tobora munozarali bo'lib bormoqda: "U bizning kimligimizni bilishi mumkin, biroq, biz o'zimizni u bizni kim, deb o'ylashini va bizning ma'lumotlarimizdan qanday va qanday maqsadda foydalanishini bilmaymiz. Bunda shahsiy hayotimiz ustidan ko'proq nazorat qilish uchun mo'ljallangan texnologiya aslida uni bu nazoratni bizdan olib tashlaydi". Demak, algoritmlardan foydalanuvchilarga oid ma'lumotlarni to'plashni optimallashtirish, ushbu axborotni tartiblash va sharhlashga yordam berish uchun ishlatish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Raqamli jamiyatda sun'iy intellekt iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarning deyarli barchasida qo'llaniladi. Bizningcha, garchi sun'iy intellekt rivojlanishi uchun raqamli jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilsa-da, biroq, barcha sohalarda yechilmagan muammo va turli ko'zda tutilmagan saqlanib qoladi. Jahon mamlakatlarida sun'iy intellekt bozori kengayib, bunday qurilmalardan inson uchun zarur bo'lgan axborot tarqatishda foydalanilmoqda. Xususan, mijozlar bilan ishlash, omborxonalar va ta'minot zanjirini avtomatik boshqarish, aqlli tavsiyalar va chat-botlar uchun qo'llanilmoqda.

Umuman olganda, bugungi kunda algoritmli yondashuv bilan axborot xavfsizligini ta'minlash va milliy saytlarni rivojlantirish hamda aholiga sifatli ish topish imkonini beruvchi va jamiyatning ijtimoiy rivojini yuqori darajada oshirishi mumkin bo'lgan sun'iy intellekt doirasida tadqiqotlarga katta turtki berish mumkin.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Тоффлер Э. Революционное богатство 2006. – М.: "АСТ", 2007. – С. 576.
2. Нерп А. Deep Mediatization. Routledge, London: Pluto Press, 2019. – P. 248.
3. Добринская Д.Е. Цифровое общество в социологической перспективе // Вестник Московского университета. Сер. 18: Социология и политология. 2019. Т.25. №4. – С.175-192.

4. Castells M. *The Rise of the Network Society: The Information Age: Economy, Society and Culture: Vol. I.* Malden, MA; Oxford, UK: Blackwell, 1996. – P. 594.
5. Добринская Д.Е., Мартыненко Т.С. Цифровой разрыв в России: Особенности и тенденции // *Мониторинг общественного мнения: Экономические и социальные перспективы.* 2019. №5. – С.100.
6. Lovink G. *Sad by Design: On Platform Nihilism.* -London: Pluto Press, 2019. – P. 290.
7. Атанасов В. «Мы не хотим быть жертвами интернета»: Интервью с медиатеоретиком Гертом Ловинком // *Мониторинг общественного мнения: Экономические и социальные перспективы.* 2019. №4. – С.50.
8. Castells M. *The Rise of the Network Society: The Information Age: Economy, Society and Culture: Vol. I.*Malden, MA; Oxford, UK: Blackwell, 1996. – P. 594.
9. Bunz M., Meikle G. *The Internet of Things.* Cambridge, – MA.: Polity, 2018. – P. 292.
10. Zuboff S. *The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power.* -New York: Public Affairs, 2019. – P. 704.
11. Castells M. *The Rise of the Network Society: The Information Age: Economy, Society and Culture: Vol. I.* Malden, MA; Oxford, UK: Blackwell, 1996. – P. 594.
12. Steinberg M. *The Platform Economy. How Japan Transformed the Consumer Internet.* Minneapolis. – London: University of Minnesota Press, 2019. – P. 304.
13. Dijck J. van. *Datafication, Dataism and Dataveillance: Big Data between Scientific Paradigm and Ideology // Surveillance and Society.* 2014. Vol.12. No.2. – P. 197–208.
14. Meijas U., Couldry N. *Datafication // Internet Policy Review.* 2019. Vol.8. No.4. – P. 1–10.
15. Beer D. *Metric Power.* -London: Palgrave Macmillan UK, 2016. – P. 223.
16. Ajana B. *Introduction: Metric Culture and the Over-examined Life // Metric Culture: Emerald Publishing Limited,* 2018. – P. 9.
17. Mau S. *The Metric Society on the Quantification of the Social.* Cambridge, -UK; Medford, MA: Policy Press, 2019. – P. 200.
18. Espeland W.N., Stevens M.L. *A Sociology of Quantification // European Journal of Sociology.* 2008. Vol.49. No.3. – P. 401.
19. Esposito E. *Artificial Communication? the Production of Contingency by Algorithms // Zeitschrift fur Soziologie.* 2017. Vol.46. No.4. – P. 249.
20. Willson M. *Algorithms (and the) Everyday // Information Communication and Society.* 2017. Vol.20. No.1. – P. 137–150.
21. Lupton D. *Digital Sociology.* –New York.: Routledge, 2015. – P. 230.
22. Kitchin R. *Thinking Critically About and Researching Algorithms // Information, Communication & Society.* 2017. Vol.20. No.1. – P. 14.
23. Kitchin R. *Thinking Critically About and Researching Algorithms // Information, Communication & Society.* 2017. Vol.20. No.1. – P. 29.
24. Katzenbach C., Ulbricht L. *Algorithmic Governance // Internet Policy Review.* 2019. Vol.8. No.4. – P. 18.
25. Broadbent S., Lobet-Maris C. *Towards a Grey Ecology // The Onlife Manifesto (ed. L. Floridi).* Cham: Springer International Publishing, 2015. – P.114.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000